



BOBURNOMADA TERMIZ VA CHAG'ONIYONNING IJTIMOYIY-IQTISODIY
HAYOTI XUSUSIDA.

Xurramov Xamid Bobokul o'g'li

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti xamidxurramov800@gmail.com ORCID ID:0009-
0000-41338532 Termiz,O'zbekiston Tel: +99899 671 45 32

Annotatsiya: Z.M.Bobur shoh va shoir,zamonasining yetuk bilimdoni,mohir sarkarda,hayoti davomida ilm-fanga katta hissa qo'shgan shaxs sifatida tarixda qoldi.O'zbekiston tarixida balkim,jahon tarixida ham yuksak o'rin tutib,Boburnoma asarida ham O'rta Osiyo,Afg'oniston,Hindiston tarixi,geografiyasi,hayvonot dunyosi va nabotot olami haqida ham batafsil yozib qoldirgan.Xususan,Termiz va Chag'oniya ijtimoiy va iqtisodiy hayotini ham o'zining "Boburnoma" asarida yoritib ketgan.Termiz va Chag'oniyaning XIV asr oxiri-XV asr boshlaridagi tarixini ham o'rganishda ushbu asar muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Z.M.Bobur,Boburnoma,Termiz,Chag'oniya,Boqi Chag'oniya,Amudaryo,Mir Buzurg Termiziy,Hisor qo'rg'oni,Tirmiz sayyidlari.

Abstract: Z.M. Babur remained in history as a king and poet, an outstanding scholar of his time, a skilled commander, and a person who made a great contribution to science during his lifetime. He occupied a high place in the history of Uzbekistan, and perhaps even in world history, and in his work "Baburnama" he wrote in detail about the history, geography, fauna and flora of Central Asia, Afghanistan, and India. In particular, he covered the social and economic life of Termez and Chaghaniyan in his work "Baburnama". This work also plays an important role in studying the history of Termez and Chaghaniyan in the late 14th and early 15th centuries.

Keywords: Z.M. Babur, Baburnama, Termez, Chaghaniyan, Boqi Chaghaniyani, Amu Darya, Mir Buzurg Termezi, Hisar fortress, Termez sayyids.

Z.M.Bobur haqida to'xtalib o'tsak,Andijonda 1483-yil 14-fevralda Umarshayx mirzo xonadonida dunyoga kelgan.Yoshlik davri Andijon va Axsida o'tgan.Yoshligidan ilmga chanqoqligi bilan ajralib turgan.Boburnoma asarini yozib,bu asarida O'rta Osiyo,Afg'oniston,Hindiston tarixi,geografiyasiga oid ma'lumotlar keltirib o'tgan.Shu bilan birgalikda Termiz va Chag'oniya aholi vakillari ham Z.M.Boburga yordam berganliklari haqida o'z asarida to'xtalib o'tadi.Ana Shu ma'lumotlarni quyida keltirib o'tamiz.

Andin beri Qahqa bila Ko'htan tog'ining janub tarafidagi viloyot,misli:Tirmiz va Chag'oniya va Hisor va Xatlon va Qunduz va Hindukush tog'igacha Sulton Mahmud mirzoning tasarrufida edi.Og'asi Sulton Ahmad mirzo o'lgandin so'ng aning viloyoti dag'i muning tasarrufida edi.

Avlodi:besh o'g'ul,o'n bir qiz edi.Bori o'g'lonlaridin ulug' Sulton Mas'ud mirzo edi.Onasi Mir Buzurg Tirmiziyning qizi edi.

Tarix to'qquz yuz o'nda Amu daryosi yoqasida Boqi Chag'oniya manga kelib mulozamat qildi.Bu begimlar onalari bilan Tirmizta edilar.(1,27)



Bular ham Boqi Chag'oniyoniyning ko'chi bila kelib qo'shildilar.

Xavotin va sarori:ulug' xotini Mir Buzurg Tirmiziyning qizi Xonzodabegim edi.Mirzo bisyor sevar edi.Sulton Mas'ud mirzoning onasi edi.Ul o'lganda mirzo bisyor qattiq ta'ziyat tutqondur.Andin so'ng Mir Buzurgning nabirasi bu Xonzodabegimning birodarzodasini oldi.Ani ham Xonzodabegim derlar edi.Besh qiz va bir o'g'ulning onasi edi.(1.28)

Sulton Husayn mirzo Xurosondin Hisor ustiga cherik tortib,qish Tirmiz to'g'risi keldi.Sulton Mas'ud mirzo ham cherik yig'ib,Tirmizg'a muqobalada kelib o'lturdi.Xisravshoh o'zi Qunduzni mahkam qilib,inisi Valini cherikka yibordi.Bu xabar Sulton Mas'ud mirzoga kelgach,Vali Xusravshohkim bu kechkan kishining ustiga bormoqni harchand sa'y qildi,Sulton Mas'ud mirzo bedillig'idin yo Boqi Chag'oniyoniyningkim,Valining ziddi edi,sa'yidin bu kechkan kishining ustiga bormodi.Buzulg'on yo'sunluq Hisor sari yondilar.Hisor qo'rg'onini Boqi Chag'oniyoniy va Mahmud barlos va Sulton Ahmad otasi berkittilar. (1.33)

Tirmiz navohisidin Amuni kechaturg'on mahalda Sayid Husayn Akbarkim,Sulton Mas'ud mirzoning ham urug'i,ham mo'tabar kishisi edi,Tirmiz hokimi edi,xabar topib,Boysung'ur mirzoning ustiga keldi.(1.43)

Ma'muraning kanorasida voqe bo'lubdur.Sharqi Farg'ona va Qoshg'ar,g'arbi Buxoro va Xorazm,shimoli Toshkand va Shoxruxiyakim Shosh va Banokat bitirlar,janubi Balx va Tirmiz,Ko'hak suyi shimolidin oqar,Samarqanddin ikki kuruh bo'lg'ay.(1.44)

Sulton Husayn mirzo Sulton Mas'ud mirzoni yaxshi ko'rub,kuyovluqqa yukundurub,inoyat va shavqat maqomida bo'lub edikim,Xisravshohning inisi Boqi Chag'oniyoniykim,mundin burunroq kelib Sulton Husayn mirzo mulozamatida bo'lur edi,angize bila Xurosonda turmay,bir bahona bila chiqib,Sulton Husayn mirzodin beruxsat Xisravshohga bordi.(1.54)

Samarqandni o'zbek olg'ach,Keshdin Hisor sari mutavajjih bo'lduk.Muhammad Mazid tarxon boshliq Samarqand beklari ko'ch va ahlu ayollari bila bizning bila tebradilar.Chag'oniyonning Chiltu o'langiga tushganda, Muhammad Mazid tarxon boshliq Samarqand beklari ayrilib borib,Xisravshohga navkar bo'ldilar.(1.73)

Qabodiyonga yetganda Xisravshohning inisi Boqi Chag'oniyoniykim,Chag'oniyon va Shahrisafo va Tirmiz anda edi,Xatib Karshiyini yuborib davlatxohlik izhori qilib,bizga qo'shilmoq bo'ldi.Amu suyini Uyon guzaridin o'tganda kelib mulozamat qildi.Boqining istidosidin Tirmiz to'g'risig'a kelib ko'chlarini Amudin beboqi kechurub,o'zimizga qo'shub,Ko'hmarkd va Bomiyon sarig'akim,ul fursatta bu yerlar o'g'li Axmad Qosimg'akim,Xisravshohning hoxarzodasidur,taalluq edi,mutavajjih bo'ldukkim,Kohmarkdning Ajar otliq dara qo'rg'onida uy-elni berkitib,yana bir maslahat ro'y bersa,anga ko'ra amal qilg'aybiz.(1.109-110)

Andoq ko'z tutulur edikim,payopay elchilar va talochilar jald va qadog'a bila kelib,mundoq hukmlar kelturgay edikim:Tirmiz va Kalif va Karki guzarlarida kema muncha yasang,ko'pruk asbobi bu miqdor tayyor qiling,yuqqori To'qquz o'lum guzarlarni yaxshi ehtiyot qiling,to bu necha yil o'zbek tafriqasidin dilshikasta bo'lg'an ellarning ko'ngli qaviy bo'lub,umidvor bo'lg'aylar edi.



Bizning bila kelgan nekim bo'lg'an och uruq,uy-elni va Boqi Chag'oniyoniyini va o'g'li Muhammad Qosimning bo'lg'on sipohilarining va aymoqlarining ko'ch va mollarini tamom Ajarda qo'yub,cherikni olib chiqtuk.(1.111)

Qanbar Ali mo'g'ulkim,zikri mukarrar kelibtur,parishongo'y kishi edi,aning atvori Boqibekka yoqmadi.Boqibekning xotiri jihatidin ruxsat berildi.O'g'li Abdushukur andin beri Jahongir mirzo mulozamatida bo'ldi.Chun Boqi Chag'oniyoniy ixtiyor edi,har nechakim,o'zini davlatxoh tutar edi,og'asining tarafini qo'ymas edi(1.112)

Ajab qodiredur,bir kishikim,yigirma-o'ttuz ming navkarning egasi edi,Qahlug'adinkim Darbandi Ohanin ham derlar,Hindukush tog'igacha Sulton Mahmud mirzoga taalluq viloyot tamom aning taxti tasarrufida erdi.(1.113)

Boqi Chag'oniyoniy va ba'zi Kobul ustiga bormoqqa so'zni qo'yub,andin ko'chub kelib Ayo qo'ruqiga tushuldi.Ushbu yurtta mening validam xonim va Kohmardta qolg'on uruq sa'b muxotara o'tkarib,kelib qo'shuldilar.(1.114-115)

Boqi Chag'oniyoniyning tavassuti bila kelib mulozamat qildi.Biz dag'i inoyat va shavqat maqomida bo'lub,dag'dag'a va tavahhumni aning xotiridin raf' qilduk.(1.116)

Boqi Chag'oniyoniy arzga yetkurdikim,suv kechmay ushbu yerdin ora qo'nub Kuhat otluq yerga borsa bo'lur emishkim,qalin jam'iyatliq va molliq ellar emish.Boqi Chag'oniyoniy arzga yetkurgandek nima cherik eliga tushmadi.Boqibek bu sa'yidin sharmandaroq bo'ldi.(1.133)

Arz qildikim,Boqi Chag'oniyoniy manga kelib dedikim,podshohni yetti-sakkiz-o'n kishi bila ruxsat berib Sind suyini o'tkarib sizni podshoh ko'tariling.Men aytdimkim,yana kimlar emish bu kengashda ?Ayttikim,manga filhol Boqibek aytti,o'zgasini bilmadim.(1.137)

Jahongir mirzo va Boqi Chag'oniyoniy bu yurishga ko'prak sa'y qildilar.Yorig'a yetgan mahalda xabar topdukkim,Sherali chuhra va Kichik Boqi Devona va bir necha kishining qochar hayollari bor emish.(1.142)

Boqi Chag'oniyoniy Amu yoqasida kelib,bizga qo'shulg'ali andin e'tiborroq va ixtiyorroq kishi yo'q edi,har so'z desa,har ish qilsa so'z aning so'zi edi,ish aning ishi edi.Xasis va zamuxt va xasud va badan darun va notavonbin va kajxulq kishi edi,xissati bu martabada edikim,Tirmizni solib,ko'ch va moli bilakim bizga qo'shuldi,o'zining xossa quyi shoyadkim,o'ttuz-qirq ming bo'lg'ay edi,har yurtta qalin qo'ylar bizning olimizdin o'tar edi,bizning yigit-yalang ochliqtin azob tortar edilar,bir qo'y bermadi.Boqi Chag'oniyoniyning korvoniga qotilib,Nilobni kechti.Boqini xabarini eshitib,yo'lini to'sub,Boqi bila borg'onlarni ariq oldi,Boqini o'lturub xotunini oldi.Agarchi biz Boqig'a hech yamonluq qilmay qo'ya berduk,vale o'z yamonlig'I olig'a kelib,o'z amalig'a giriftor bo'ldi.(1.143)

Yana No'yonbek edi,otasi Tirmiz sayidlaridindur,ona tarafidin ham Sulton Abusaid mirzo,ham Sulton Husayn mirzog'a uruq bo'lur.(1.154)

Tarix to'qquz yuz o'nda Kobulg'a avval kelgan yilikip,Hindustong'a kirmoq doyasi bila Xaybardin o'tub,Pashovar kelganda Boqi Chag'oniyoniyning sa'yi bila quyig'i Bangash sarikim Ko'hat bo'lg'ay,yurub,qalin Afg'onistonni chopib,qirib Bannu va Dashtni tolon-toroj qilib,Duki bila chiqildi. (1.205)



Dedimkim Sen bularni o'zbek xon,sultonlarig'a qiyos qilurmisen ? Ul yil Samarqanddin chiqib,Hisor kelganda o'zbekning jami' xon va sultonlari yig'ilib,ittifoq qilib bizning ustimizg'a kelur azimat bila Darbanddin o'ttilar.Biz jami' sipohi va mo'g'ulning ko'ch va mollarini mahallotni ko'chaband qilib,berkittuk.Chun ul xonlar va sultonlar yurish-turishining hisob va yarog'ini bilur edilar,ko'rdilarkim,o'luk-tirikni Hisorda ko'rub,Hisorni berkittuk.Hisor ustiga kelmakning hisobin topa olmay,Chag'oniyon navohisi Navandoqdin-o'q yondilar.Bularni alarg'a o'xshatma. (1.243)

Tursun Muhammad sulton Tirmiztin yurib,Qabodiyonni olib,ko'mak tilabdur.(1.327)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak,Z.M.Boburning "Boburnoma" asari XIV-XV asrlarga oid nodir manba bo'lib,Termiz va Chag'oniyon tarixiga ham alohida to'xtalangan.Asarda bu hududlar sanab o'tilishdan tashqari Boqi Chag'oniyoniy va Termiz sayyidlari haqida ham iliq fikrlar berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bobur,Zahriddin Muhammad Boburnoma:[O'rta yoshdagi maktab bolalari uchun] /[Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev:Muharrir A.O'ktam]. -T.:Yulduzcha,1989.---368 b
2. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi do'st,fors tilidan tarjimon Hazratqulov J,Bekjonov I, T.,<O'zbekiston>,2013
- 3.Xidirov A. Chag'oniyon tarixi.-Toshkent islom universiteti,2002.208 b
4. Jaloliddin Mirzo Termiz tarixi. T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001
5. Sharafiddin Ali Yazdiy Zafarnoma "Yangi asr avlodi",2023.-576 b.
- 6.Nizomiddin Shomiy Zafarnoma -T.: "O'zbekiston",1996.-528 b.